Auditorlik tekshiruvlarining ishi sifatini tashqi nazorat qilish bugungi kunda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tarkibida auditorlik tashkilotlari ishining sifatini tashqi nazoratdan o'tkazuvchi bo'limning audit.mf.uz sayti [1] orqali amalga oshirilmoqda. Ushbu saytda O'zbekiston Respublikasida joylashgan auditorlik tashkilotlari elektron hisobotlarini topshiradi va tavakkalchilik tahlili asosida auditorlik tashkilotlari ishining sifati tekshiriladi.

O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar milliy uyushmasi (O'zBAMU) auditorlik tashkilotlarining tashqi nazoratini amalga oshirib kelmoqda.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tarkibidagi auditorlik tashkilotlari ishining sifatini tashqi nazoratdan o'tkazuvchi bo'lim bilan O'zBAMUning auditorlik tashkilotlari ustidan olib boradigan tashqi nazorati o'rtasidagi farq shundaki, O'zBAMUda faqat uyushmaga a'zo bo'lgan auditorlik tashkilotlarining audit tekshiruvlari sifati nazoratdan o'tkaziladi va uyushma har yili o'tkazadigan audit reytingi orqali baholanadi. Moliya vazirligi tarkibidagi tashqi nazorat bo'limida esa O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan barcha auditorlik tashkilotlari tavakkalchilik tahlili asosida tanlab olinib tekshiriladi.

Audit ishi sifatini nazorat qilish auditning o'tkazilishida va auditga turdosh xizmatlarning ko'rsatilishida audit standartlariga hamda O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tartibga solib turuvchi boshqa normativ hujjatlar talablariga rioya etilishini tekshirish uchun qo'llaniladigan tashkiliy chora-tadbirlar, uslublar va tartib-taomillar tizimini ifodalaydi. Kuchayib borayotgan raqobat sharoitida mulkdorlar tomonidan ham, nazorat qiluvchi organlar tomonidan ham xolis xo'jalik nazoratining roli ortib bormoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar auditi sifat nazorati bo'yicha ilmiy qarashlar asosan auditorlik standartlari evolyutsiyasi, audit sifati modeli va mustaqil nazorat institutlarining shakllanishi doirasida rivojlangan. DeAngelo 1981-yilda audit sifatining klassik konsepsiyasini ishlab chiqib, auditorning xatolik va buzilishlarni aniqlash ehtimoli bilan mustaqillik darajasi sifat mezonining asosiy omillari ekanini asoslagan. Shu nuqtayi nazardan, vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan subyektlar uchun audit jarayonida manfaatlar to'qnashuvi xavfi yuqori bo'lgani sababli sifat nazorati tizimi yanada qat'iy bo'lishi lozim. Watts va Zimmerman tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-shartnomaviy model ham bozor munosabatlarida axborot assimetriyasini kamaytirishda audit sifati determinantlari muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi.

Knechel, Vanstraelen va Zerniak tadqiqotlarida audit sifati auditorning kasbiy skepsezmi, rejalashtirish jarayonining chuqurligi hamda nazorat amallarining izchil bajarilishi bilan bog'liq ekani ko'rsatilgan. Vositachilik xizmatlari yuqori tranzaksiya faoliyatga ega bo'lgani uchun auditorlikning riskga yo'naltirilgan yondashuvini kuchaytirish zarurati alohida qayd etiladi. Humphrey va Turley ishlarida esa audit firmalarida sifat nazoratining institutsional tamoyillari — ichki inspeksiya, hamkasb tekshiruvi va standartlashtirilgan metodologiyalar — audit ishonchlilikini oshiruvchi asosiy mexanizmlar sifatida baholangan.

IFAC va IAASB tomonidan qabul qilingan xalqaro standartlar, xususan ISQC 1 va ISA 220 talablari bo'yicha mamlakatlar auditorlik tizimining moslashuvi ham ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Francis 2011-yilda o'tkazgan tadqiqotida audit sifatining makrodeterminantlarini — tartibga solish, nazorat organlarining mustaqilligi va audit firmalarining tashkiliy barqarorligi — alohida tahlil qiladi. Bu omillar vositachilik xizmatlari auditi sifat nazoratida ham bevosita namoyon bo'ladi, chunki ushbu xizmatlar moliya bozorida ishtirokchilar o'rtasidagi axborot oqimlarini boshqaradi. Shuningdek, Palmrose tomonidan amalga oshirilgan empirik tahlillar audit sifati past bo'lgan kompaniyalarda xatolar va moliyaviy buzilishlar ehtimoli ancha yuqori ekanini ko'rsatgan, bu esa vositachilik subyektlari uchun sifat nazoratining ustuvor ahamiyatini tasdiqlaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda vositachilik xizmatlarida raqamlashtirish va avtomatlashtirilgan nazorat tizimlaridan foydalanish audit sifatiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani qayd etilmoqda. Brynjolfsson va McAfee tomonidan ilgari surilgan raqamli transformatsiya nazariyasiga ko'ra, axborot jarayonlarining avtomatlashtirilishi auditorning aniqlik darajasini oshiradi, risklarni aniqlashni tezlashtiradi va sifat nazoratini takomillashtiradi. Shu jihatdan, vositachilik subyektlari auditi yirik ma'lumotlar, elektron tranzaksiyalar va integratsiyalashgan hisob tizimlari bilan birga qo'shimcha nazorat choralarini talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot uchun ma'lumotlar vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlari, auditorlik xulosalari, xalqaro audit standartlari hamda tartibga soluvchi organlar e'lon qilgan ochiq ma'lumotlardan yig'ildi. Ushbu axborotlar tarkibiy tahlil, taqqoslash, riskga yo'naltirilgan baholash va sifat nazorati amaliyotlarini solishtirish orqali qayta ishlanib, audit sifatiga ta'sir etuvchi omillar aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Keyingi yillarda O'zbekistonda, ayniqsa ijtimoiy-siyosiy hayotni, jumladan iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulkdorlar sinfini shakllantirish jarayonidan kelib chiqqan holda, bir qancha sohalarni, jumladan turli vositachilik xizmatlari faoliyatini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatning bir shakli bo'lgan tashqi savdoning samaradorligi va natijadorligi ma'lum darajada savdo vositachilari, ularning imkoniyatlari va ishlash sharoitlariga bog'liq. Xalqaro savdo almashinuvini to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirish imkoni bo'lmagan holatlarda savdo vositachilarining tashqi savdoda ishtiroki majburiy tus oladi. Bunday vaziyatlarda turli vositachilik xizmatlari, jumladan savdo xizmatlari, transport, shuningdek tovarni omborga joylashtirish va saqlash kabi xizmatlar talab etiladi.

Xalqaro savdodagi ko'plab vositachilar orasida birjalar alohida o'rin egallaydi, chunki ular vositachilik xizmatlari ko'rsatishda keng imkoniyatlarga ega.

1. Savdo bitimlari tuzishda vositachilik xizmatlari.
2. Tovar savdosini tartibga solishda va savdo tomonlari o'rtasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni bartaraf etishda vositachilik xizmatlari.

3. Bozor konyunkturasi holati va narxlar haqida ma'lumot yig'ish hamda tarqatishda vositachilik xizmatlari.

Birjalar tomonidan ko'rsatiladigan vositachilik xizmatlari doirasi keng, chunki birjalarning bir qancha turlari (tovar, fond, valyuta) mavjud va ularning har biri ma'lum vositachilik funksiyalarini bajaradi. Jumladan, tovar birjasi savdo vositachilik funksiyasini bajarsa, fond birjasi pul mablag'larini safarbar qilish jarayonida, shuningdek ularni ishlab chiqarish va almashinuv sohasida samarali joylashtirishda vositachilik xizmatlarini ko'rsatadi. Fond birjasida vositachilik xizmatlari ko'rsatishda dilerlar va brokerlar ishtirok etadilar. Dilerlar



o'z hisoblariga qimmatbaho qog'ozlar sotib oladilar va sotadilar, broker esa mijozlar nomidan ishtirok etib, ularning vositachisi hisoblanadi. Brokerlarning daromadi vositachilik xizmatlari ko'rsatganlik uchun olinadigan foizlardan tarkib topadi. Dilerlar daromadi esa qimmatbaho qog'ozlarni sotish va sotib olish kurslari o'rtasidagi farq hisobiga shakllanadi.

Tovar birjasi — bu muntazam faoliyat yuritadigan xom ashyo va iste'mol tovarlari ulgurji bozorining shaklidir. Tovar birjasi — bu alohida korxonalar va tashkilotlar, agar nizomida belgilangan bo'lsa, jismoniy shaxslar a'zolari ham bo'lishi mumkin bo'lgan, yuridik shaxs maqomiga ega, aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan subyektlardir. Birjalar odatda yopiq turdagi tashkilotlar hisoblanadi, ya'ni birja ishida ishtirok etish huquqiga faqat uning a'zolari yoki ularning vakillari egadir.

Birja savdosining o'ziga xosligi tovar bozoridagi sharoit bilan belgilanadi. Shu sababli birja savdosini to'liq shaklda amalga oshirishga hali to'la erishilmagan. Birja kuni tashkiliy jihatdan auksionni eslatadi.

Tashqi savdo operatsiyalariga eksport-import, reeksport-reimport va boshqa operatsiyalar kiradi. Eksport operatsiyalari xorijiy kontragent mulkiga topshirish uchun tovarlarni xorijga sotish va olib chiqishni nazarda tutadi. Import operatsiyalari — import qiluvchi mamlakatning ichki bozorida keyinchalik sotish yoki import qiluvchi korxona ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun xorijiy tovarlarni sotib olish va olib kirishni anglatadi.

To'g'ridan-to'g'ri eksport va import operatsiyalari hamda vositachi orqali amalga oshiriladigan tashqi savdo operatsiyalari o'rtasida farq mavjud. Bu yerda vositachi sifatida:

- brokerlar — mijozlar nomidan, ularning topshirig'iga va hisobiga ko'ra bitimlar tuzadilar;
- dilerlar — o'z nomidan va o'z hisobidan bitimlar tuzadilar;
- komissionerlar — mukofot evaziga o'z nomidan, biroq komitent manfaati hisobiga bitimlar tuzadilar;
- konsignatorlar — topshiriq shartnomasi asosida omborxonadan tovarlar sotishni amalga oshiradilar;
- ulgurji xaridorlar;
- savdo agentlari va boshqa vakillar ishtirok etishlari mumkin.

Vositachilar odatda quyidagi vazifalarni bajaradilar:

- hamkorlarni qidirib topish, hujjatlarni tayyorlash va bitimlar tuzish;
- transport-ekspeditor operatsiyalari;
- kredit-moliyaviy xizmat ko'rsatish va tovarlarni sug'urtalash;
- sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish;
- sotuv bozorlarini o'rganish va reklama;
- bojxona rasmiyatchiliklarini bajarish va boshqa amallar.

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti yuzasidan xulosa berishda auditorlar o'zlarining shaxsiy, haqqoniy va mutaxassislik darajasidagi bilimlariga tayanishlari lozim. Zero, auditorlar tomonidan xo'jalik subyekti moliyaviy hisobotlari bo'yicha berilgan beg'araz xulosa mulk egalari, investorlar, kreditorlar, banklar tomonidan aksiyalarni sotib olish va sotish, kreditlar va qarzlarni berish to'g'risida qarorlar qabul qilish jarayonida foydalaniladi [5].

Keyingi yillarda xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish faoliyatlari kengayib, har tomonlama rivojlanmoqda. Ayniqsa xizmat ko'rsatish faoliyatining bir qismi bo'lgan vositachilik xizmatlari salmoqli o'rin egallamoqda. Shu bois ushbu faoliyat turi bo'yicha auditning asosiy maqsadi — amaldagi qonunchilik, auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga soluvchi tizim, auditor va mijoz o'rtasidagi o'zaro shartnoma majburiyatlari bilan belgilanadigan aniq masalalarni hal etishdan iboratdir.

Vositachilik faoliyatini audit qilishning asosiy vazifasi — quyidagi maqsadlarga erishish uchun moliyaviy hisobotlarni tekshirishdir:

hisobotlarning ishonchli ekanini tasdiqlash yoki ishonchsizligini qayd etish;

tekshirilayotgan davrda xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati natijasida hisob va hisobotda xarajatlar, daromadlar va moliyaviy natijalarning to'liq, ishonchli va aniq aks ettirilganini tekshirish;

hisobni yuritish va hisobotni tuzish, aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni baholash uslubiga oid qoidalarni tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga rioya qilinishini nazorat qilish;

xususiy va aylanma mablag'lar, moliyaviy zaxiralar va zayom mablag'laridan oqilona foydalanish imkoniyatlarini aniqlash.

Vositachilik xizmatlari faoliyatini tekshirish jarayonida balans va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning to'g'ri tuzilganligi hamda tushuntirish xati ma'lumotlarining ishonchligi aniqlanadi. Bunda quyidagilar tekshiriladi:

hisobotda barcha aktivlar va passivlarning aks ettirilganligi;

hisobot tuzishda barcha hujjatlardan foydalanilganligi;

mol-mulkni baholashning amaldagi uslubi xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosatida qabul qilinganidan qay darajada farq qilishi;

foyda solig'i (yagona soliq) va boshqa soliqlar bo'yicha soliqqa tortiladigan bazaning to'g'ri aniqlanganligi.

Auditor vositachilik faoliyati bo'yicha quyidagilarni tekshirishi lozim:



xo'jalik yurituvchi subyekt mulkdorlarining Ustav kapitali hajmini o'zgartirish to'g'risidagi qarorlarining to'liq bajarilganligi;

balansning aktiv va passiv schyotlari bo'yicha sintetik va tahliliy hisob ma'lumotlarining o'zaro mosligi; hisobotda debitorlik va kreditorlik qarzlarning to'liq aks ettirilganligi.

Auditorlik xulosasini tayyorlash jarayonida quyidagilar tekshirilishi lozim:

xo'jalik yurituvchi subyektida amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarining qabul qilingan hisob siyosatiga muvofiq aks ettirilishi va mol-mulkni baholash tartibiga rioya qilinishi;

daromadlar va xarajatlarning hisobot davrlari bo'yicha to'g'ri aks ettirilishi;

hisobda xizmat ko'rsatish (vositachilik) bo'yicha joriy xarajatlar (aylanma chiqimlar) va kapital qo'yilmalar ajratilgan holda ko'rsatilishi;

har oyning 1-sanasiga tahliliy hisob ma'lumotlari bilan aylanma va tahliliy schyotlar qoldiqlarining o'zaro mos kelishi.

Asosiy maqsadga erishish va xulosa taqdim etish uchun auditor quyidagi masalalar bo'yicha o'z fikrini shakllantirishi lozim:

hisobotning umumiy qabul qilingan tamoyillarga mosligi, hisobotda talab qilinadigan barcha shartlarga rioya qilinganligi va bir-biriga zid ma'lumotlar mavjud emasligi;

asoslanganlik (ko'rsatilgan summalarning asosli ravishda hisobotga kiritilganligi);

yakunlanganlik (barcha zarur summalarning hisobotga kiritilganligi, aktivlar va passivlarning barchasi subyektga tegishli ekanligi);

baholashning to'g'riligi (barcha tabaqalar to'g'ri baholanganligi va xatosiz hisoblanganligi);

tabaqalashtirish (schyotga yozilgan summalarning asosga ega bo'lgan holda qayd etilganligi);

ajratish (balans tuzilgan sanadan oldin yoki bevosita undan keyin amalga oshirilgan muomalalarning tegishli davrda to'g'ri aks ettirilganligi);

batartiblik (muomalalar bo'yicha summalarning tahliliy hisob hujjatlarida to'g'ri qayd etilganligi, raqamlar izchil keltirilganligi, yakuniy summalarning Bosh kitobdagi ko'rsatkichlarga mosligi);

oshkoralik (barcha tabaqalashtirilgan ma'lumotlarning moliyaviy hisobotga kiritilganligi va uning ilovalarida to'g'ri aks ettirilganligi).

Keltirilgan tushunchalar audit o'tkazish uchun umumiy ta'rif bo'lib, mulkning turli ko'rinishlari mavjud sharoitda uni tanlash mijoz subyekt uchun qonunchilik asosida belgilab qo'yiladi. Bevosita hisob va audit amaliyotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ustav kapitali auditida ta'sis hujjatlarini tekshirish (ma'lum ma'noda ekspertiza) juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday faoliyat, xususan auditorlik faoliyati samarali bo'lishi uchun avvalo, uning puxta va aniq rejasi yoki dasturi tuzilishi zarur. Rejaning mazmuni qo'yilgan maqsad va uni bajarish uchun belgilangan aniq vazifalardan kelib chiqadi.

Auditorlik tashkilotining ish faoliyatini rejalashtirish jarayonida auditor korxonadan olinadigan ma'lumotlarni tekshirmaydi, biroq auditning umumiy rejasini tuzishga oid ishlar hujjatlashtirilishi lozim. Korxona faoliyatini belgilaydigan muhim ma'lumotlar va hujjatlar nusxalaridan iborat doimiy hujjatlar to'plamini shakllantirish tavsia etiladi.

Bizning fikrimizcha, ushbu doimiy to'plamda quyidagilar saqlanishi lozim:

– ta'sis hujjatlarining nusxalari yoki bayonnomalari;

– korxonaning davlat ro'yxatidan o'tganligi haqida ma'lumotlar;

– korxonaning maslahatchilari haqida ma'lumotlar;

– korxonaning bankdagi schyotlari haqida ma'lumotlar;

– tekshirilayotgan korxonaning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar (molyetkazib beruvchilar, pudratchilar, sug'urta kompaniyalari, xaridor va buyurtmachilar va boshqalar) bilan tuzilgan turli shartnomalari hamda mehnat shartnomalarining nusxalari;

– tashqi tekshiruvchilar (boshqa auditorlar, soliq inspeksiyasi va boshqalar)ning tekshiruv materiallari.

Auditor o'z ishini shunday rejalashtirishi lozimki, buxgalterlik (moliyaviy) hisobotlari, moliya-xo'jalik muomalalarining ishonchiligi va qonuniyligi hamda ular buxgalteriya hisobi schyotlarida to'g'ri aks ettirilganligini o'z vaqtida va sifatli auditorlik tekshiruvidan o'tkazish ta'minlansin [4].

Xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan olinadigan iqtisodiy foydalar, sarf-xarajatlar va kutilayotgan xarajatlar aniq hisoblanishi shart. "Asosiy faoliyatdan tushgan daromatlar" nomli 2-sonli BHMSga muvofiq, tovarlarni sotish va xizmatlar ko'rsatish chog'ida quyidagilar daromat sifatida tan olinadi:

1. Distribyuterlar, dilerlar va shunga o'xshash vositachilar orqali sotish. Bunday sotuvlardan olingan daromat odatda egalik qilish tavakkalchiligi va manfaatdorligi berib yuborilganda tan olinadi. Agar xaridor vakil sifatida faoliyat yuritssa, sotuv konsignatsion sotuv sifatida baholanadi.

2. Ommaviy axborot vositasi tomonidan vositachilik haqi. Reklama yoki reklama tasmasi omma oldida chiqarilganda daromad sifatida tan olinadi. Ishlab chiqarish bo'yicha vositachilik haqi loyiha tugallanish darajasi ko'rsatilgan holda tan olinadi.



3. Sug'urta agentligining vositachilik haqi. Sug'urta agentligi tomonidan olingan yoki olinishi lozim bo'lgan vositachilik haqi, agar agent tomonidan keyinchalik xizmat ko'rsatish talab etilmasa, sug'urta polisi kuchga kirgan yoki tiklangan kundan boshlab daromad deb tan olinadi. Agar polis amal qilish davrida agentdan qo'shimcha xizmat talab qilinishi ehtimoli mavjud bo'lsa, komission haqning o'zi yoki uning bir qismi kechiktiriladi va polis amal qiladigan davr mobaynida daromad sifatida tan olinadi.

4. Mijozga aksiyalarni taqsimlagani uchun vositachilik haqi. Bunday vositachilik haqi aksiyalar taqsimlangan paytda daromad sifatida tan olinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ilmiy maqola natijalariga ko'ra vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar faoliyati auditining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha quyidagi takliflarni bildirish mumkin. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatida xalqaro auditorlik tashkilotlari va kompaniyalari tajribasidan foydalanish davr talabidir. Auditorlik faoliyatini rivojlantirishda uning asosiy bo'g'ini hisoblangan milliy audit standartlarining amaliy tatbiqini kuchaytirish hamda xalqaro audit standartlariga muvofiqligini oshirish sohadagi mavjud muammolarning hal etilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa kichik biznes, xususiyl tadbirkorlik va chakana savdo korxonalari asosiy faoliyati auditini o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Savdo korxonalari asosiy faoliyati auditini o'tkazishning asosiy bosqichlari o'rganildi. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonida auditorlik tashkiloti umumiy rejani uning alohida elementlari bo'yicha ko'rib chiqishi mumkin. Auditning umumiy rejasida tekshiruv muddati, uni o'tkazish grafigi, auditorlik xulosasi va hisobotini tayyorlash tartibi ko'rsatilishi zarur. Shuningdek, auditning umumiy rejasida auditni o'tkazish yo'llari, ichki nazorat tizimini baholash va audit riskini aniqlash masalalari ham aks etishi lozim. Agar tekshirishda tanlash usuli qo'llanishi rejalashtirilsa, auditorlik tanlash tartibi shakllantirilishi kerak.

2. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, auditorlik tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot va xulosalarning sifatli bo'lishi, avvalo audit tekshiruvini boshlashdan oldin uni puxta rejalashtirish hamda audit o'tkazish dasturini to'g'ri tuzishga bog'liq. Chunki yaxshi va optimal ishlab chiqilgan reja tekshiruvning asosiy qismini qamrab oladi.

3. Chakana savdo korxonalari asosiy faoliyati auditini o'tkazishda milliy standartlardan foydalaniladi. Chunki milliy standartlar xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ular o'rtasida jiddiy farq mavjud emas. Asosiy farq shundaki, milliy standartlarga muvofiq audit o'tkazishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga qat'iy amal qilinishi shart. Soliqlar, hisob tizimidagi imtiyozlar va cheklovlar me'yoriy hujjatlar bilan belgilanadi va ular doirasida audit o'tkazilishi lozim.

Xo'jalik yurituvchi subyekt hukumat qarori bilan ayrim soliq turlaridan ozod qilingan bo'lishi mumkin. Biroq soliq summasi subyektning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish yoki operatsion xarajatlarini qoplash uchun yo'naltirilishi mumkin. Bunday xo'jalik yurituvchi subyekt soliq turlari bo'yicha belgilangan muddatlarda davlat soliq inspeksiyasiga soliq deklaratsiyasini topshirishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг 25.02.2021 й. ЎРҚ-677-сон "Аудиторлик фаолияти тўғрисида"ги Қонуни (Қонунчилик палатаси томонидан 10.11.2020 й. қабул қилинган, Сенат томонидан 05.02.2021 й. маъқулланган). <https://lex.uz/docs/5307886>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 19.09.2018 й. ПҚ-3946-сон "Ўзбекистон Республикасида аудиторлик фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори. <https://lex.uz/uz/docs/3914502>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 04.08.2021 й. ПҚ-5210-сон "Аудиторларни сертификатлаштириш тизimini такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарори. <https://lex.uz/docs/5552197>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 й. ПФ-60-сон "2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 11.04.2022 йилдаги "Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қўллаш учун аудитнинг халқаро стандартларини тан олиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида" 171-сон қарори. <https://lex.uz/docs/5952173>
6. Молия вазирининг 24.09.2021 й. 56-сон "Аудиторнинг малака сертификатини малака имтиҳонини топширмасдан бериш ва мuddатини узайтириш учун асос бўладиган бухгалтерларнинг халқаро сертификатлари рўyxатини тасдиқлаш тўғрисида"ги Буйруғи (АВ томонидан 29.09.2021 й. 3321-сон билан рўyxатга олинган)
7. Сифат назорати, аудит, кўриб чиқиш, бошқа ишонч билдириш ва турдош хизматларнинг халқаро стандартлари. Таржима УБАМА 2014.
8. https://www.abbreviationfinder.org/ru/acronyms/sox_sarbanes-oxley-act-of-2002.html
9. <http://base.garant.ru/71364274/>
10. <https://www.ifiar.org/>
11. <https://www.frc.org.uk/>
12. https://www.ifac.org/system/files/meetings/files/6086_0.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
